

**DO`STLIK TUMAN AXBOROT-KUTUBXONA  
MARKAZI**

<https://t.me/onlinesearchbook>

**AXBOROT BIBLIOGRAFIYA XIZMATI**



O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimov tavalludining 86-yilligiga “Qalblarimizda mangu yashaysiz” mavzusida kitobxonlarga eslatma.



Har bir inson dunyoga kelibdiki baxtli ,saodatli hayot kechirishga intiladi. Buning uchun esa tinimsiz izlanishda,o'rganishda bo'lib, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qilib yashaydi. Biroq hayotda shunday shaxslar ham bo'ladiki, o'zining tinchligidan, huzur-halovati, xotirjamligidan, baxtu,saodatidan kerak bo'lsa, jonidan ham kechib, elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak degan shiorni o'ziga dastak qilib, ona yurtimiz baxtu- iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir degan tamoyilni barcha rahbar fuqarolarning ongu shururiga singdirib yashaydi. Biz quyida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, komil inson, xalq faravonligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag'rikenglik tamoyillarini insonlar qalbiga izchil singdirilishini ta'minlangan, Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari, konsepsiyasini jamiyat hayotiga tatbiq etgan Mustaqillik tog'dek tayanchimiz, qudratli zaminimiz ekanligini teran anglab, fuqarolarni ham shunga ishontirgan va o'z ortidan ergashtira olgan xalqimizning fidoiy va suyukli farzandi, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning o'ziga xos fazilatlarining ayrim jihatlarini yoritib berishga harakat qilamiz.

Islom Karimov O'zbekistonning mustaqil davlat bo'lishini ta'minlab Mustaqillik biz uchun avvalo, o'zligimizni anglash, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlari va merosini, g'urur va iftixorimizni tiklash, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib berganini alohida ta'kidlash zarur. Aynan mustaqillik iqtisodiy hayotimizda sobiq Markazdan turib rejalashtirilgan eskicha ma'muriy buyruqbozlik tizimidan, biryoqlama rivojlangan nochor iqtisodiyotdan voz kechib,erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, xususiy mulkni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan qa'tiy islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib berdi! Islom Karimov —Mustaqil O'zbekistonni kim himoya qiladi – faqat o'zimiz, eng ishonchli himoyamiz, bu o'zimizning xalqimiz! deya ta'kidlab, xalqimizni ham mustaqiligimizni mustahkamlash uchun da'at etdi. —Ozod va obod yurtda yashaydigan, yangicha fiklaydigan odamlarning uylari ham, ularning hayoti, turmushi ham go'zal va farovon bo'lishi kerak! – deya jamiyatimizning har bir qatlamini nazardan qochirmagan holda siyosat yurgizdi. Albatta, har bir millat va xalq qachonki yaratib berilayotgan imkoniyatlar ularning manfaatlarini himoya qilsa, o'zining ortida shunday

qudratli suyanch va tayanch bo'ladigan davlat rahbari turganligini his qilgandagina hayotdan rozi bo'ladi.

Islom Karimov faoliyatida inson va uning manfaatlari birinchi pog'onada bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. —Dunyoda qancha odam bo'lsa, hech biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Har birodamning o'ziga yarasha qadr –qimmat bor. Ayni jihatni, avvalo, rahbarlar hisobga olsa, hech qachon kam bo'lmaydi. Odamni mensimaslik hech qachon kam bo'lmaydi. Odamni mensimaslik hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi – deya har bir insonning qadr-qimmatini o'rniga qo'ydi. —Xalqimiz manfaati, uning ertangi taqdiriga daxldor bo'lgan har qanday qarorni qabul qilishgda yetti o'lchab, bir kesishimiz zarur – deb uqtirib, —Agar sen odamlarni sevmasang, xalqing ishonch bildirgan odamlarni yuragingga yaqin olmasang, rahbar bo'lishga umuman haqqing yo'q! – deya o'zi bu borada jonbozlik ko'rsatdi.

Islom Karimov jamiyatimiz a'zolarining yoshu –keksalariga bir xil munosobatda bo'lib —Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shartli, - deya yoshlar uchun ta'lim tizimida ham, sport sohasida ham, yillarga nom berib dasturlar ishlab chiqilishida ham, umuman yosh avlod uchun nima lozim bo'lsa barcha sharoitlarni yaratib berdiki, bugungi kunda yoshlarimizning jahon miqiyosida fan, sport va boshqa sohalarda erishayotgan yutuqlari buning isbotidir.

Islom Karimov —Keksalar xonadonimizning fayzu farishtasill – deya, keksa avlodning ham dardu - tashvishlarini inobatga olib ularning ham turmush tarzini yaxshilash uchun yillarga nom berib dasturlar pensiya ta'minotining yangi ko'rinishlarini jamiyat hayotiga joriy qildi. Oqibatda keksa avlod shunday imkoniyatlarni yaratib bergan davlatimiz va davlatimizning birinchi rahbaridan umrbod rozi bo'lib —O'zbek xalqi uchun tinchlik va omonlik kerak! – deya duo qilib, tinch va xotirjam yashamoqdalar.

Islom Karimov —Biz hech qachon unutmashligimiz zarur – ayolini e'zozlagan erkak baxtli bo'ladi, ayolini hurmat qilgan millat kam bo'lmaydi! – deya jamiyatimiz har bira'zosiniayollarni hurmat qilishga undadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Ijroiya Qo'mitasi raisi – Ijrochi kotibi Sergey Lebedevning esdaliklari keltirilgan. Unda, jumladan, shunday deyiladi: —Mening qalbimda bu mehribon va atoqli inson, O'zbekistonning haqiqiy yetakchisiga nisbatan yuksak hurmat tuyg'usi hamon saqlanib turibdi. Uning o'zini tutishi, xatti-harakatlari o'z xalqining ehtiromiga sazovor davlat rahbari ekanligini namoyon qilardi. Islom Karimov o'z qarashlari va faoliyatida qat'iy edi. Buqat'iyat uning prinsipial xarakterga ega ekanligini ko'rsatar hamda mamlakat aholisi va o'zatrofidigilarda chuqur hurmat tuyg'usini uyg'otardi. U xalqaro maydonda, eng avvalo, MDHda tan olingan nufuzli yetakchi edi.

### **O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning tarjimai holi**

Islom Abdug'aniyevich Karimov 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati - o'zbek. Oliy ma'lumotli, O'rta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo'jaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Iqtisod fanlari nomzodi. Mehnat faoliyatini 1960-yilda Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodida boshlagan. 1961-yildan 1966-yilgacha V. P. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor bo'lib ishladi.

1966-yilda O‘zbekiston SSR Davlat plan komitetiga ishga o‘tib, bosh mutaxassislikdan Respublika Davlat plan komiteti raisining birinchi o‘rinbosarigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

1983-yilda Islom Karimov O‘zbekiston SSR Moliya ministri, 1986-yilda O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining o‘rinbosari, Respublika Davlat plan komitetining raisi etib tayinlandi.

1986-1989-yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi, 1989-yilning iyunidan boshlab O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimlarida ishladi.

1990-yil 24-mart kuni O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida Islom Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.

1991-yil 31-avgust kuni Islom Karimov tarixiy voqea — O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi.

1991-yil 29-dekabrda muqobillik asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

1995-yil 26-martda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumini yakunlariga ko‘ra Islom Karimovning Prezidentlik vakolati 2000-yilga qadar uzaytirildi.

2000-yili muqobillik asosida o‘tgan saylov natijalariga ko‘ra, Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, Islom Karimov 7 yil muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

2007-yili muqobillik asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

2015-yili muqobillik asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovida Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

Oilali, ikki farzandi, besh nafar nabirasi bor. Rafiqasi T.A. Karimova - mutaxassisligi bo‘yicha iqtisodchi, iqtisod fanlari nomzodi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot institutida katta ilmiy xodim bo‘lib ishlagan, ayni paytda - pensiyada.

Karimov suveren va mustaqil O‘zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta‘minlash ishiga qo‘shgan ulkan hissasi hamda bu borada matonat va jasorat ko‘rsatganligi uchun —O‘zbekiston Qahramonil unvoni, —Mustaqillik va Amir Temur ordenlari bilan taqdirlangan. Shuningdek, u bir qancha xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlarning faxriy unvon, orden va medallari bilan ham mukofotlangan.


Islom Karimov O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi. Ayni vaqtda iqtisodiyot, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya sohalarini rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hissasi



uchun ko‘plab xorijiy mamlakatlar universitet va akademiyalarining faxriy fan  
doktori hamda akademigi etib saylangan.

# Islom Abdugʻaniyevich Karimov

30.01.1938 - 02.09.2016



## **Buyuk xizmatlari.**

Islom Karimov mamlakatimizda amalga oshirilgan ulkan ishlar, tarixiy o'zgarishlarning tashabbuskori va rahnamosidir:

- O'zbekiston mustaqilligining asoschisi, mamlakat mustaqil taraqqiyot dasturini ishlab chiqqan va milliy taraqqiyot yo'lini belgilab bergan atoqli davlat arbobidir;

- demokratik talablar va xalqaro mezonlarga to'la javob beradigan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy muallifi va uni hayotga tatbiq etishning tashkilotchisidir;

- u markaziy hokimiyat va uning joylardagi bo'g'inlarini isloh qilish, davlat, jamiyat va inson munosabatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan yangi siyosiy-ijtimoiy tizim tamoyillarini ishlab chiqdi va amalga oshirdi;

- xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari hamda ilg'or jahon tajribalarini mujassamlashtirgan iqtisodiy islohotlarning yangi modelini ishlab chiqdi. Bu rivojlanish yo'li iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, qonun ustuvorligi, o'tish davrida davlatning bosh islohotchi ekanligi, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, kuchli ijtimoiy himoya kabi mashhur besh tamoyilni o'z ichiga oladi va u dunyoda —O'zbek modelini deb e'tirof etilgan;

Islom Abdug'aniyevich Karimovning faoliyati xalqaro darajada ham yuksak baholandi. U boshqa mamlakatlarning quyidagi mukofotlari bilan taqdirlangan:

— Ukraina Prezidentining Faxriy nishoni (Ukraina), 1992 yil.

— —Mugunxval ordeni (Koreya Respublikasi), 1995 yil.

— —Italiya Respublikasi oldidagi xizmatlari uchun Katta Xochi kavaleri ordeni (Italiya), 1997 yil.

— —Altin iran (Oltin burgut) ordeni. Qozog'iston, 1997 yil.

— Birinchi darajali —Dono Yaroslav ordeni (Ukraina), 1998 yil.

— —Ulug' Vitautas ordeni (Litva), 2002 yil.

— —Fuqarolik xizmatlari uchun ordeni (Ispaniya), 2003 yil.

— —Xizmatlari uchun birinchi darajali ordeni (Polsha), 2003 yil.

- —Oltin Runol ordeni (Gruziya), 2003 yil.
- —Stara Planinal ordeni (Bolgariya), 2003 yil.
- —Xaloskorl ordenil (Gretsiya), 2003 yil.
- —Turkmenistanyn Hormatly il yasulusyl (Turkmaniston), 2007 yil oktyabr.
- —Uch yulduzll ordeni (Latviya), 2008 yil.
- —Jasoratll prezident ordeni (Gruziya), 2013 yil.
- Birinchi darajali —E'tirof xochill ordeni (Latviya), 2013 yil.
- —Magtymguly Adyndaky Halkara Bayragyl ordeni va —Maxtumqulil xalqaro mukofoti (Turkmaniston), 2014 yil.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab Islom Karimov milliy davlatchilik, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy yangilash, bugungi kunda butun dunyoda mashhur —o`zbek modelil asoslarini ishlab chiqdi. U quyidagi beshta tamoyildan iboratdir:

- iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, ishlab chiqarishning mafkuradan xoliligi;
- davlat — bosh islohotchi;
- qonunning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy siyosatni murakkab demografik vaziyatni hisobga olgan holda amalga oshirish;
- bozor iqtisodiyotiga xolisona iqtisodiy qonunlarni hisobga olib —inqilobiy sakrashlarsizll, bosqichma-bosqich o`tish.

Kichik va xususiy biznes milliy iqtisodiyotda muhim o`rin egallaydi. Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatimizda iqtisodiy siyosatning eng muhim yo`nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususiy sektor vakillari uchun imtiyozlar va preferentsiyalar yaratilgan, ular xom ashyo resurslaridan foydalanishlari uchun sharoitlar bilan ta'minlangan. Mamlakatimizda neft-kimyoy, kimyoy, avtomobil sanoati, qishloq xo`jaligi va temir yo`l mashinasozligi, farmatsevtika, elektrotexnika, tekstil sanoati, zamonaviy qurilish materiallari sanoati kabi respublika uchun sanoatning mutlaqo yangi yuqori texnologik tarmoqlari yaratildi. Sho`rtan va Ustyurt gaz-kimyoy majmualari, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi,

Qo'ng'irotda soda zavodi, Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodi, Andijon, Samarqand, Toshkent va Xorazm viloyatlaridagi avtomobilsozlik zavodlari kabi jahon miqyosida noyob sanoat majmualari qurildi.

Mamlakatimizda zamonaviy yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi yaratildi, shu jumladan Qamchiq dovoni orqali noyob tunnel bilan Angren-Pop, shuningdek, Toshguzar-Boysun-Qumqurg'on temir yo'l yo'nalishlari tizimlari ishga tushirildi, Toshkentdan Samarqand, Buxoro va Qarshigacha Markaziy Osiyoda tezligi yuqori bo'lgan birinchi temir yo'l yo'nalishi ochildi, xalqaro aeroportlar modernizatsiya qilindi, Navoiy aeroporti negizida xalqaro logistika markazi va O'zbek milliy avtomagistrali yaratildi. Zamonaviy davlatni rivojlangan infratuzilmasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida milliy salohiyatni oshirish, AKTni barcha sohalarga keng tatbiq etish bo'yicha ishlar tez sur'atlar bilan davom ettirilmoqda. Muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda.

Istiqlol yillari mobaynida mamlakatimiz, shaharlar va qishloqlarimiz qiyofasi tubdan o'zgardi. Bugungi kunda O'zbekistonni aslida katta qurilish maydoni desa bo'ladi. Har yili yangi sanoat korxonalarini foydalanishga topshirilmoqda, o'quv yurtlari, sog'liqni saqlash muassasalari, boshqa ijtimoiy ob'yektlar qurilmoqda. Ko'lami tobora kengayib borayotgan uy-joy qurilishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Islom Abdug'aniyevichning tashabbusi bilan qishloq aholisi uchun shahar sharoitlariga yaqin zamonaviy uy-joy sharoitlari yaratish maqsadida uzoq muddatli ipoteka kreditlarini imtiyozli shartlarda ajratgan holda Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi Dasturi qabul qilindi.

Birinchi navbatda, fermerlik harakati tashkil etilishi va uning rivoji uchun barcha sharoitlar yaratilishi, uning qishloqdagi hal qiluvchi kuchga, jamiyat tayanchiga aylantirilishi, dehqonlarda yerning haqiqiy egasi, mulkdori hissining mustahkamlanishi, o'z mehnati natijalaridan manfaatdorligi o'sib borishi qishloq xo'jaligidagi salmoqli muvaffaqiyatlarning asosiy omillari bo'ldi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Istiqlol yillari mobaynida ularni ishlab chiqarish hajmi 2 martadan ko'p o'sdi. O'zbekiston nafaqat o'z aholisini asosiy oziq-ovqatlar bilan ta'minlaydi, balki bug'doyni hamda yangi va ishlov berilgan meva-sabzavot mahsulotining 200 ga yaqin turini eksport qiladi.

Iqtisodiyotdagi shunday barqaror yutuqlar samarali ijtimoiy siyosatni, avvalambor, ta'lim, sog'liqni saqlash va aholi turli qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshirish imkonini beradi.

1993- yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlod salomatligini mustahkamlash, uni ma'naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan tarbiyalash, unga vatanparvarlik va o'z Vatanga mehr-muhabbat tuyg'usini singdirish ishidagi



alohida xizmatlarni ragbatlantirish maqsadida, shuningdek, bolalar manfaatlari yoʻlida xayriya faoliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etganlik uchun davlat mukofoti - Sogʻlom avlod uchun ordeni taʼsis etildi.

Shu yilning aprel oyida —Sogʻlom avlod uchun xalqaro xayriya fondi, mustaqil Oʻzbekiston tarixida birinchi hukumatga qarashli boʻlmagan fond tuzildi.

Bosh maqsadi mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilishni yaxshilash boʻlgan va jahon hamjamiyati tomonidan eʼtirof etilgan —Sogʻlom ona — sogʻlom bolal davlat dasturi ham ishlab chiqilib qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda onalar va bolalar oʻlimi uch baravardan ortiq qisqardi. Kishilarning turmush sifati va salomatligi yaxshilanib bormoqda. Erkaklarning oʻrtacha umr koʻrishi 66 yoshdan 73,5 yoshga, ayollarning esa 76 yoshga yetdi.

Shu tariqa Prezident Islom Karimov tomonidan taʼkidlangan —Islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun deb nomlangan mamlakatimizdagi islohotlarning bosh mezoni amalda namoyon boʻlmoqda.

Eski qolip va andozalardan toʻliq voz kechgan holda Islom Karimovning tashabbusi bilan keng koʻlamli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi, taʼlim tizimi zamonaviy xalqaro standartlar asosida tubdan isloh qilindi. Oʻzbekistonda bu davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Mamlakatimizda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Janubiy Koreyaning Inha universiteti kabi Yevropa va Osiyoning bir qator yetakchi oliy oʻquv yurtlarining filiallari muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Islom Karimov ulgʻayib borayotgan avlodni tarbiyalashning printsiplial jihatdan yangi tizimini yaratish va hayotga tatbiq etish ishiga bevosita rahbarlik qildi. Bu mamlakatimizning bugungi va ertangi kunining hal qiluvchi kuchiga aylanib borayotgan yoshlarimizning tafakkurini va dunyoqarashini tubdan oʻzgartirdi.

Yangi taʼlim standartlari va oʻquv dasturlari, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida mamlakatimizning millionlab oʻgʻil-qizlari yuksak darajada bilim va tarbiya olmoqdalar. Bu Oʻzbekiston taʼlim modelining samaradorligini, xalqaro miqyosda uning raqobatbardoshligini yaqqol koʻrsatgan holda ularga hayotda munosib oʻrin egallash imkonini beradi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan oʻtkazilgan tadqiqot ham buni tasdiqlamoqda. Tadqiqotga koʻra taʼlim tizimini rivojlantirish darajasi boʻyicha, shu jumladan taʼlim maqsadlari uchun ajratilgan mablagʻlar ulushi boʻyicha Oʻzbekiston dunyoda beshinchi oʻrinni egallaydi.

Iqtisodiyot, fan va taʼlim rivojiga qoʻshgan ulkan hissasi uchun Islom Abdugʻaniyevich xorijiy davlatlardagi bir qator universitetlarning faxriy doktori va akademigi etib saylangan:

— Ahmad Yassaviy nomidagi Turkiston davlat universitetining faxriy professori (Qozogʻiston), 1992 yil.

- Zitouna universitetining faxriy professori (Tunis), 1992 yil.
- —Sogʻan universitetining iqtisodiyot fanlari doktori (Koreya Respublikasi), 1992 yil.
- Al-Azhar universitetining faxriy professori (Misr), 1992 yil.
- Javaharlal Neru universitetining faxriy fan doktori (Hindiston), 1994 yil.
- Boku davlat universitetining faxriy fan doktori (Ozarbayjon), 1996 yil.
- Fan, taʼlim, sanoat va sanʼat xalqaro akademiyasi prezidiumining faxriy aʼzosi (AQSh), 1997 yil.
- G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasining faxriy fan doktori, 1998 yil.
- Aviatsiya va havoda uchish akademiyasining amaldagi aʼzosi (akademigi) (Rossiya), 1998 yil.
- Oliy maktab xalqaro maktabining faxriy aʼzosi, akademigi (Rossiya), 1999 yil.
- Fontis universitetining iqtisodiyot faxriy professori (Niderlandiya), 2000 yil.
- G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi Faxriy fan doktorlari xalqaro klubining aʼzosi, 2000 yil.
- M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining faxriy professori, (Rossiya), 2001 yil.
- Vaseda universitetining faxriy professori (Yaponiya), 2002 yil.
- Soka universitetining faxriy doktori (Yaponiya), 2002 yil.
- Sorbonna-Parij IV universitetining iqtisodiyot professori, (Frantsiya), 2003 yil.
- —Rossiya togʻ konchisil oltindan yasalgan koʻkrak nishoni bilan mukofotlagan holda Rossiya togʻ-konchilik fanlari akademiyasining xorijlik aʼzosi, (Rossiya), 2004 yil.
- Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy universitetining faxriy fan doktori, (Ukraina), 2004 yil.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan deyarli 300 ta bolalar musiqa va sanʼat maktabi tarmogʻi, shuningdek, yoshlarni sportga ommaviy jalb qilishning uch bosqichli tizimi yaratilganligi sogʻlom, intellektual va maʼnan barkamol yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan ishlarning muhim boʻgʻinlaridir. Maktab oʻquvchilari orasida oʻtkaziladigan —Umid nihollaril, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar oʻquvchilari orasida oʻtkaziladigan —Barkamol avlod sport oʻyinlari va talabalar orasida oʻtkaziladigan Universiada ana shu tizimga kiradi. Har yerda, hatto eng olis tumanlarda ham yuzlab yangi zamonaviy sport kompleksi, stadionlar va boshqa sport obʼyektlari qurildi, amaldagi inshootlar toʻliq rekonstruksiya qilindi. Birinchi oʻrinda yoshlarga moʻljallangan sport turlarini ommalashtirishning noyob amaliyoti mamlakatning butun aholisida sogʻlom turmush tarzi falsafasini shakllantirishga koʻmaklashmoqda.

Islom Abdugʻaniyevich Karimov oʻz tashabbusi bilan Bolalar sportini rivojlantirish fondi tuzib, uning homiylik kengashini boshqardi. Fond tufayli Oʻzbekiston boʻylab millionlab bolalar oʻzlari yoqtirgan sport turlari bilan zamonaviy zallar va stadionlarda shugʻullanish imkoniga ega boʻldilar. Bu —Oʻsib kelayotgan sogʻlom avlod - mamlakatimiz kelajagi garovli kontseptsiyasida mustahkamlab qoʻyilgan sogʻlom turmush tarzini ommalashtirishda mamlakatimiz uchun mutlaqo yangi yondashuv boʻldi. Bu Oʻzbekiston sportchilarining yuksak yutuqlari uchun asos yaratdi. Ular tomonidan turli xalqaro musobaqalarda qulga kiritilgan koʻplab mukofotlar misolida bu yaxshi koʻrinadi. Ayniqsa, olimpiada medallari mamlakatimiz uchun qadrlidir. Olimpiya oʻyinlarida sportchilarimiz jami 13 ta oltin, 9 ta kumush va 19 ta bronza medaliga ega boʻldi. Paraolimpiya oʻyinlarida Oʻzbekiston vakillarining yutuqlari 8 ta oltin, 7 ta kumush va 17 ta bronza medali bilan baholandi.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekiston Respublikasida 80 dan ziyod sport federatsiyasi faoliyat koʻrsatib kelmoqda. Ularning asosiy vazifalari mamlakatimizda sportni muvofiqlashtirib borish va rivojlantirishdan iboratdir.

Oʻzbekistonda sportni rivojlantirish, sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va ommalashtirishdagi xizmatlari uchun Islom Karimov xalqaro eʼtirofga sazovor boʻldi va quyidagi yuksak sport mukofotlari bilan taqdirlandi:

- Xalqaro olimpiya qoʻmitasining oltin ordeni, 1996 yil.
- Osiyo olimpiya kengashining oltin ordeni va medali, 1996 yil.
- Xalqaro kurash federatsiyasining oltin ordeni (FILA), 1999 yil.
- Milliy olimpiya qoʻmitalari uyushmasining oltin ordeni, 2001 yil.
- Kurash xalqaro uyushmasining (IKA) oltin ordeni, 2002 yil.
- Xalqaro futbol federatsiyasining (FIFA) oltin medali, 2012 yil.

- Osiyo paraolimpiya qo`mitasining oltin ordeni, 2013 yil.
- Xalqaro SAMBO havaskorlik federatsiyasining (FIAS) oltin ordeni.
- Xalqaro olimpiya qo`mitasining oltin medali, 2015 yil.
- Osiyo olimpiya kengashining oltin marjoni, 2015 yil.
- Osiyo shaxmat federatsiyasining —Yil odamll nominatsiyasidagi mukofot, 2015 yil.
- Xalqaro havaskorlar boksi uyushmasining (AIBA) oltin marjoni, 2016 yil.

Islom Karimov — dono Prezident. Islom Abdug`aniyevichning ko`plab so`zlari va fikrlari aforizmdan iborat va ma`no jihatdan shu darajada teranki, millionlab vatandoshlarimiz uchun ruhiy sokinlikning asosiga, turmushning axloqiy negiziga aylandi. —O`zbekiston — umumiy uyimizll deb nomlangan aniq ifodalangan va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan printsip tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlashga ko`maklashmoqda.

Bugun O`zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch va do`stona hayot kechirmoqda. Ular o`z milliy madaniyati, tili, xalq an`analari va urf-odatlarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar bilan ta`minlangan. Mamlakatimizdagi tinchlik va totuvlik, millatlararo va fuqarolararo jipslik, O`zbekiston xalqlarining uyushqoqligi mustaqillikning bebaho boyligi, asosiy yutug`i, jamiyatdagi barqarorlikning eng muhim omili hisoblanadi.

Islom Abdug`aniyevich xalqimizning ma`naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo`lishni, muqaddas dinimizni, an`analarimiz va urf-odatlarimizni saqlash va rivojlantirishni, bebaho tarixiy merosimizni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. Prezident ma`naviy tiklanish, milliy o`zlikni anglashni mustahkamlash, xalqimizning tarixiy xotirasini tiklash, uning ulkan ilmiy va madaniy salohiyatini avaylash jarayonining tashabbuskori bo`ldi. Bu O`zbekistonning rivojlanishini ta`minlab bermoqda.

— Bu zamin Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Alisher Navoiy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi —Sharq uyg`onish davrinll yaratgan misli ko`rilmagan davlat arboblari va olimlarni, mutaffakirlar, shoirlar hamda ma`rifatparvarlarni yetishtirib berdi. Jahon hamjamiyati ularning Islom madaniyatiga va jahon faniga qo`shgan bebaho hissasini e`tirof etmoqda. Ularning nomlari jahon madaniyati tarixiga zar harflar bilan yozilgan. Ular o`tmishda fan, ta`lim, ma`naviyat, madaniyat markazlari hisoblangan va bugun YuNESKO tomonidan Jahon madaniy merosi ro`yxatiga kiritilgan buyuk shaharlarda yashab ijod qilganlar. Mamlakatimiz Birinchi Prezidentining tashabbusi bilan xalqaro jamoatchilik ishtirokida Samarqandning 2750 yilligi,



Qarshining 2700 yilligi, Buxoro, Xiva va Termizning 2500 yilligi, Marg`ilonning 2000 yilligi, O`zbekistonning boshqa shaharlar yubileylari keng nishonlandi.

Islom Abdug`aniyevichning ushbu ezgu ishlari e`tiborsiz qolmadi va u quyidagi yuksak nufuzli mukofotlarga sazovor bo`ldi:



— YuNESKOning —Avitsennal oltin medali, 1998 yil.

— YuNESKOning —Samarqandning 2750 yilligil oltin va kumush medallari.

— YuNESKOning —Borobodur oltin medali.

— YuNESKOning —Ipak Yo`l kumush medali.

— YuNESKOning —Aristotell medali.

— YuNESKOning Fes (Marokash), Istanbul (Turkiya) shaharlarining yubileylari va xotira sanalariga bag`ishlangan medallari.

— Butunjahon intellektual mulk tashkilotining oltin medali, 1996 yil.

— Rus pravoslav cherkovining birinchi darajali —Svyatoy Blagoverniy Knyazya Daniila Moskovskogol ordeni (Rossiya), 1998 yil.

— Davlatlararo aviatsiya qo`mitasining oltin medali, 1999 yil.

— Ispaniya Senatining oltin medali, 2003 yil.

— —Apostol Andrey Pervozvanniyl oltin yulduziga va forum ordeniga ega —Madaniyatlar muloqotil jahon ijtimoiy forumi mukofoti (Rossiya), 2003 yil.

— Xalqaro mukofotlar fondi Birinchi darajali Avliyo Nikolay Chudotvoret ordeni (Ukraina), 2004 yil.

— —Seul shahrining faxriy fuqarosil esdalik nishoni (Koreya Respublikasi), 2006 yil.

— Kavkaz musulmonlari boshqarmasi ilmiy-diniy kengashining —Sheyx ul-Isloml ordeni (Ozarbayjon), 2011 yil.

Islom Abdug`aniyevich Karimov quyidagi to`plamlarda e`lon qilingan ko`plab

asarlarning muallifi hisoblanadi:

— O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.

— Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.

— Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.

— Bunyodkorlik yo`lidan.

— Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi.

— Xavfsizlik va barqarorlik yo`lida.

— Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz.

— Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.

— Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz.

— Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak.

— Biz tanlagan yo`l — demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li.

— Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga hamjihatligimiz va qat`iy irodamizga bog`liq.

— O`zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo`lmaydi.

— Inson, uning huquq va erkinliklari — oliy qadriyat.

— Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir.

— Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida.

— Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta`minlash - bizning oliy maqsadimiz.

— Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko`tarilish sari.

— Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.

— Bizning yo`limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo`lidir.

— Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo`lida.

— O`zbekiston erishgan yutuq va marralar - biz tanlagan islohatlar yo`lining tasdig`idir.

— Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlangan islohotlarimizni yangi bosqichga ko`tarish bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir.

— Demokratik islohotlarni, iqtisodiyotidagi tarkibiy o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlik ustuvorligini ta`minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish - hozirgi bosqichda mamlakatimizni rivojlantirishning hal qiluvchi omili.

Uning asarlari ingliz, arab, ispan, xitoy, koreys, nemis, rus, turk, fransuz, hind va boshqa tillarga tarjima qilingan.

O`z nutqlaridan birida Islom Abdug`aniyevich qalbidan yangragan va uning hayotiy nuqtai nazari bo`lgan quyidagi so`zlarni bildirgan edi:

—Biz noyob va takrorlanmas tabiatiga, mehnatkash va saxiy xalqiga ega ajoyib mamlakatda yashayapmiz. Har kimga ham bunday mamlakatda tug`ilish va yashash baxti nasib qilavermaydi.

Bunday baxtga munosib bo`lish, Vataniga, xalqiga sadoqat bilan xizmat qilish barchamiz uchun chindan ham oliy baxt hisoblanadi.

Hayotimning butun mazmunini men buyuk xalqimga uning baxti va ravnaqi yo`lida fidokorona va sidqidildan xizmat qilishda deb bilamanl.

Taniqli siyosat va davlat arbobining tarjimai holi omma uchun noma'lum bo`lgan uning xarakteridagi ayrim fazilatlari va hayoti tafsilotlarini ochib bermasdan to`liq bo`lmas edi. Ular haqida O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning oila a`zolari hikoya qilib berishdi. Bu jihatlarsiz o`ziga xos inson va shaxsning to`liq portretini tasavvur qilib bo`lmaydi.

Islom Abdug`aniyevich sevimli farzand, er, ota va bobo ham edi. U o`zining ota-onalari haqida, ayniqsa, onasi Sanobar oyini katta mehr va iliqlik bilan eslagan. Olti nafar aka-ukalariga hurmat munosabatida bo`lgan. O`zining yagona opasi Mehrinisodan doim minnatdor bo`lgan.

Maktab yillaridan boshlab ko`p kitob o`qigan va uning maktab davridagi insholari sinfdoshlari uchun o`rnak bo`lgan. Ularning eslashicha, u yordamga muhtoj bo`lganlarga ko`maklashish uchun ko`pincha darslardan keyin qolardi. Islom Abdug`aniyevich sodiq do`st edi va imkoniyatiga qarab, band bo`lishiga

qaramay maktabdagi va institutdagi do'stlari bilan muloqotda bo'lishni davom ettirdi.

Hozirgi vaqtda Kozonda yashaydigan sinfdoshlaridan birining xotiralari qiziq. Maktab yillarini ta'riflab, uning shaxsiy fazilatlarini yaxshi ko'rsatadigan bir hodisa haqida hikoya qilib berdi. Kattalardan biri mevalar yig'im-terimi vaqtida bolalardan kelgusida kim bo'lmoqchi ekanliklarini so'raganda ularning aksariyati uchuvchi, chilangar kabi kasblarni aytgan. Yosh Islomning javobi ham bolalarni, ham kattalarni lol qoldirdi. —Amir Temurdek bo'lmoqchiman, deb javob berdi mamlakatning bo'lajak yetakchisi. Maksim Gorkiyning —Izergil kampir hikoyasi uchinchi qismi personaji, o'zini qurbon qilib, o'z xalqini yonib turgan yuragi bilan qutqargan Danko yosh Islomning sevimli adabiyot qahramonlaridan biri sifatida so'nggi kunlarigacha qolgan. Uning —Otash kabi yonib, o'zgaralar yo'lini yoritishiori o'spirin yuragiga singib kelgusi yillarda ko'p takrorlangan hamda Prezidentning o'ziga xos hayot mazmuniga aylangan.

Bolalikdagi va maktabdagi yillarida u sportga qiziqardi va sportga bo'lgan bunday munosabatni bir umr saqlab qoldi. U kurash, stol tennisi, shaxmat, velosport, basketbol bilan shug'ullandi va hatto yoshi ulg'ayganda ham to'pni savatga aniq tushira olishi bilan ko'pchilikni hayron qoldirardi.

Shaxmat o'ynash uning butun hayoti davomida dam olish daqiqalarida eng yaxshi ko'rgan mashg'uloti bo'lgan. Bu unga davlat muammolaridan biroz ovunib, diqqat-e'tiborini o'yin mantig'iga, noodatiy shaxmat kombinatsiyalariga qaratish imkonini berardi. Ayniqsa bu Prezident uzoq safarlardan qaytib kelganda namoyon bo'lardi. U soatlab shaxmat taxtasi ustida o'tirishi mumkin edi. Velosiped minish unga o'zgacha huzur baxsh etardi va Islom Abdug'aniyevichning bu ishtiyoqi farzandlariga hamda nabiralariga ham o'tdi.

Mustahkam iroda va kuchli xarakterga ega bo'lib, u 50 yoshda bo'lganida qisqa vaqtda katta tennis o'yin ko'nikmalariga ega bo'ldi. Kechqurunlari ishdan keyin Islom Abdug'aniyevich tennis bilan shug'ullanganida o'yinga berilib va o'z diqqatini koptokda jamlab, bir oz bo'lsa-da, kundalik tashvishlaridan xoli bo'lardi.

Islom Abdug'aniyevich mamlakatimizda sportni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi va uning o'zi ham har kuni trenajyorlarda shug'ullanib, yaxshi jismoniy formasini saqlashga harakat qildi. Bu unga sutkasiga 10 soatgacha ishlash imkonini berdi.

U deyarli ta'tilga chiqmasdi va dam olish vaqtida, oz fursat bo'lsa-da, Toshkent viloyati Qaynarsoy tog'lariga safar qilishni ma'qul ko'rardi. U yerdagi sokin muhitda ko'p yurardi, tabiatdan bahra olardi. Umuman olganda, u tabiatga e'tibor bilan munosabatda bo'lar edi, har bir kichkina o'zgarishlarni ko'rardi va o'z munosabati bilan hamsuhbatlarini ergashtirishga harakat qilardi. Hatto dam olish vaqtida ham u yetilib qolgan muammolarni hal qilishga kirishib ketardi. Uning uch nafar farzandi va olti nafar nabirasi bolib, ular bilan muloqot unga katta quvonch keltirardi. Uning rafiqasi - Tatyana Akbarovna uning haqiqiy do'sti, yordamchisi, fikrdoshi edi, Islom Abdug'aniyevich bilan 47 yil baxtli turmush qurib, u bilan hayotning barcha zahmatlarini baham ko'rardi. Mustaqil davlatimizning asoschisi Islom Abdug'aniyevich Karimov 2016 yil 2 sentyabr



kuni soat 20.55 da Toshkentda miya qon aylanishining o`tkir buzilishi (insult) oqibatida vafot etdi.

Birinchi Prezidentga nisbatan samimiy mehr-muhabbat va chuqur hurmat ayniqsa motam kunlari kuchli namoyon bo`ldi. O`shanda butun xalqimiz Birinchi Prezidentimizni ko`z yoshlari bilan uning oxirgi manziliga kuzatib qo`ydi. Bundan qariyb 60 yil avval maktabni oltin medal bilan tamomlagan yosh iste`dodli bolakayni taqdir bu shahardan olib ketgandi, endi esa o`z ona zaminiga mustaqil O`zbekiston Prezidenti sifatida so`nggi manzilga qaytib keldi. Islom Abdug`aniyevichning hayotdan ko`z yumishi respublikamizning barcha aholisi uchun juda og`ir, tiklab bo`lmas yo`qotish bo`lgandi.



Islom Abdug`aniyevich o`zini ona Samarqand zaminida dafn etilishini xohlagan edi. Va uning vasiyati bajo keltirildi. 2016 yil 3 sentyabr kuni O`zbekistonning Birinchi Prezidenti o`zining kichik vatani - Samarqand shahrining qadimiy Hazrati Hizr masjidida dafn etildi.

O`zbekiston mustaqilligining 25 yilligiga bag`ishlangan o`z nutqi ustida ishlaganida Islom Abdug`aniyevich Karimov nutqini quyidagi so`zlar bilan yakunlamoqchi edi. U bu so`zlarni aytishga ulgurmasdi. Endilikda bu so`zlar xalqimiz uchun vasiyatnoma hisoblanadi:

—Barcha ezgu ishlarimizda Yaratganning o`zi qo`llasin, o`zi madadkor bo`lsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, xalqimiz omon bo`lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo`lsin!!

#### *Foydalangan adabiyotlar.*

E`tirof (o`zbek, ingliz, rus tillarida), T., 1995;

O`zbekistonning yangi tarixi, 3-j. (Mustaqil O`zbekiston tarixi), T., 2000;

Islom Karimov — O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti (fotoalbom; o`zbek, ingliz, rus tillarida), T., 1998;

Levitin L., Karlayl D. S, Islom Karimov — yangi O`zbekistan Prezidenti, T., 1996;

Levitin L., Uzbekistan na istoricheskom povorote, M., 2001;

Seriya vojdi narodov — XX vek, M., 1996;

Murod Sharifxo`jayev. Formirovanie otkritogo grajdanskogo obshchestva v Uzbekistane, T., 2002;

Amerikaga tashrif — Vizit v Ameriku, T., 2002.[13]